

USMON AZIM ADABIY-ESTETIK QARASHLARI RIVOJIDA ZAMONAVIY O'ZBEK VA JAHON SHOIR-ADIBLARINING O'RNI

Madinabonu AHMEDOVA

ToshDO'TAU adabiyotshunoslik: adabiyot nazariyasi 2-kurs magistranti

madinabonu667@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677326>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Usmon Azim adabiy-estetik qarashlarining takomiliga hissa qo'shgan zamonaviy o'zbek va jahon shoir-adiblarining ta'siri tadqiq qilinadi. Bu kabi ijodkorlarning shoir ijodi, estetik konsepsiyasiga ta'siri Usmon Azim ijodi va estetik qarashlari mosolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: adabiy-estetik qarash, zamonaviy o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, adabiy ta'sir, poetic tafakkur, ijodiy shakllanish, adabiy jarayon.

Аннотация. В данной статье исследуется влияние современных узбекских и мировых поэтов и писателей, внесших вклад в формирование литературно-эстетических взглядов Усмона Азима. Воздействие подобных творческих личностей на творчество поэта и его эстетическую концепцию анализируется на примере творчества и эстетических взглядов Усмона Азима.

Ключевые слова: литературно-эстетические взгляды, современная узбекская литература, мировая литература, художественное влияние, поэтическое мышление, творческое становление, литературный процесс.

Abstract. This article examines the influence of contemporary Uzbek and world poets and writers who contributed to the development of Usmon Azim's literary and aesthetic views. The impact of these writers on the poet's творчество and aesthetic conception is analyzed through the example of Usmon Azim's works and aesthetic views.

Keywords: literary and aesthetic views, contemporary Uzbek literature, world literature, artistic influence, poetic thinking, creative formation, literary process.

Usmon Azim zamonaviy o'zbek she'riyatining taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallagan, badiiy tafakkuri teran va poetik izlanishlari bilan ajralib turadigan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning ijodini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijodiy barkamollik shoirga Yaratgan tomonidan berilgan iste'dod bilan bir qatorda, ana shu iste'dodni sayqallamoq, salaflar ijodini kuzatib, ulardan adabiy an'analarni chuqur o'zlashtirish, zamondoshlar va jahon adabiyoti bilan uzviy aloqada bo'lish barobarida shakllanadi. Usmon Azim o'zining "So'ngso'zlar" asarida ayni bolalik kezaridan boshlab oilaviy adabiy muhitda ulg'aygani, xalq dostonlari, ertaklarini tinglagani, ulg'aygach esa tog'asi shu davrda chop etilgan mumtoz, zamonaviy shoir va yozuvchilarning, munaqqidlarning, qo'shni adabiyot vakillarining kitoblarini olib kelishini, Usmon Azim esa ularni bir boshidan o'qishga tutinganini xotirlaydi. Bu jarayon bo'lajak shoirni oddiy kitobxondan badiiy kitobni tushunib, tanlab va sinchiklab o'qiydigan



kitobxonga, o‘qigan badiiy asarlariga o‘z badiiy-estetik bahosini bera oladigan, ularni chuqur tahlil qila olishiga muhim omil bo‘lgan. Usmon Azim nafaqat zamonaviy o‘zbek adabiyotining zabardast darg‘alari, balki jahon adabiyotining ulkan vakillari ijodi bilan tanishib, o‘z ijodiy tajribasini, badiiy-estetik tafakkurini boyitgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti vakillarining Usmon Azim adabiy-estetik qarashlari rivojiga ta’siri xususida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Erkin A‘zam kabi ijodkorlarning o‘rni katta. Usmon Azim Abdulla Qodiriy xususida ko‘p to‘xtaladi. Shoirning “So‘ngso‘zlar” asarida Abdulla Qodiriyning mahorati, o‘z asarlariga sharqona uslubni singdirgani, keyinchalik bu uslub Cho‘lpon va Oybek ijodiga tutashganini bayon qiladi. Usmon Azim Qodiriy ijodidan nafaqat badiiy ta’sirlanadi, balki uning fojeali hayot yo‘li, adolat va haqiqat yo‘lidagi sobitligi, ma’naviy jasorati va e’tiqodini ham chuqur ehtirom bilan ulug‘laydi. Zero, Abduqodir Hayitmetov ta’kidlaganiday: “Azim daryo va mahobatli tog‘ qa’rida yashiringan xazina va boyliklarni to‘rt jumlada tasvirlab bo‘lmaganidek, ayataylik, Abdulla Qodiriy adabiy shaxsiyatining o‘ziga xosligini ham so‘z bilan ifodalash bag‘oyat dushvordir. Bir qarasangiz, Qodiriy ko‘pchilik qatori oddiy, xoksor, faol odam. Biroq butun odam, millatga, yurtga, adabiyotga o‘zini bag‘ishlagan Benazir shaxs. Uning jasorati samimiyatida, samimiyati fidoyiligida, fidoyiligi e’tiqod va va diyonatida. Uning izidan borib, adabiyotda ham, hayotda ham Qodiriyning din-u maslagidan chekinilmaganda (Sovet davlati qaramog‘idagi ko‘p el va millatlar qatori) bizda dahriy, ya’ni ruhoniyyat va ilohiy shuurdan mahrum g‘arib, sayoz, nochor bir adabiyot gurkirab rivoj topmasdi”[4. 6]. Usmon Azim Abdulla Qodiriy siymosida Vatanni, Vatan siymosida Abdulla Qodiriyning ko‘radi:

Yomg‘irday bir sog‘inch ko‘ksimga to‘ldi,
Yurakka tutashdi notanish g‘ulu.
Nogoh Vatanimni ko‘rganday bo‘ldim,
Qodiriyning xuddi o‘zi edi u. [1.4b]

Mazkur misralarda Abdulla Qodiriy siymosi Vatan timsoli bilan uyg‘unlashadi. Shoir uchun Qodiriy obrazi — adolat, haqiqat va milliy ozodlik g‘oyalarining mujassam ifodasidir. Shu bois, Qodiriyga bo‘lgan sog‘inch aslida Vatanga, mustaqillikka va tarixiy haqiqatga bo‘lgan sog‘inch sifatida talqin etiladi. Usmon Azim ijodida Cho‘lpon siymosi ham alohida o‘rin tutadi. Shoir Cho‘lponni nafaqat iste’dodli adib, balki millatni uyg‘otishga chorlagan ma’naviy yetakchi sifatida talqin etadi. U Cho‘lponning ijodiy merosi bilan bir qatorda, uning mashaqqatli va fojeali hayot yo‘lidan ham ta’sirlangan ijodkor. Usmon Azim Cho‘lponni g‘aflatga qarshi

kurashuvchi, milliy ongni uygʻotuvchi siymo sifatida koʻradi. Uning iztiroblari va armonlari esa ayni shoir yashayotgan davr uchun ham eng kerakli chaqiriq edi. Olomonning loqaydlik va erksizlikka, turgʻunlikka koʻnikkan hayot tarzi uchun Choʻlponning chaqirigʻi kerak edi. Usmon Azim “XX asrning yigirmanchi yillarida Choʻlpon ila yozgʻonim bir sheʼr” ida Choʻlponning qismati, ijodi, maslagi, erk, vatan, ozodlik uchun sogʻinchini yuksak badiiy talqin etadi. Vatanni sevmuq” sheʼrida shoirning vatanga muhabbatini, shoir iztirobini, vatanni sevmuqlik vatandan ogʻirligini ifodalaydi.

Koʻkardim. Oʻlimda gulladim oxir –

Vatan, seni sevmuq hayotdan ogʻir. [2.72].

Usmon Azim “Choʻlpon. Sevgi” nomli sheʼri ijroviy lirika hisoblanib, shoir Choʻlpon tilida soʻzlaydi. Sheʼrda tasvirlangan sevgi – vatanga muhabbat. Choʻlponni esa ayni shu sevgi yoʻq qilganiga, faqatma faqat yolgʻonlar qurshovida qolganiga iqror boʻladi, ammo shoir abadiy haqiqatni yuragidan angʻlaydi, garchi shoir atrofini yolgʻon-u boʻxtonlar oʻrab olgan boʻlsa-da, qorongʻuda yorugʻlik qanchalik yorqin koʻringaniday, yolgʻonlar ichida haqiqat, chin inson ham shu qadar ajralib turishidan faxr tuyadi:

Yolgʻon oʻsgan sayin hayotim – qadar,

Yolgʻon bosgan sayin chinligim rostdir. [2.73].

Usmon Azimning badiiy-estetik tafakkuri takomilida oʻzining nasriy asarlari va hikoyalari bilan oʻzbek adabiyoti rivojlanishi yoʻliga ulkan hissa qoʻshgan Abdulla Qahhorning ham hissasi katta. Usmon Azim Abdulla Qahhorning ijod mahoratiga bergan bahosi, yuksak eʼtiroflarini “Soʻngsoʻzlar” asarida qayta-qayta uchratamiz. Abdulla Qahhor ilk bora adabiyotni yevropalashtirgani, yaʼni rus va boshqa millat yozuvchilari tajribalarini oʻrganib adabiyotni shu tajribalar bilan boyitganini taʼkidlaydi. Abdulla Qahhorning ijodiga, badiiy mahoratiga, shaxsiyatiga ham baho bergan shoir Abdulla Qahhorni butunlay xatolardan xoli ijodkor deb bilmaydi, ijodiy uslubi xususida tanqidiy fikrlar ham bildiradi, ammo yozuvchining adolatparvarligi, haqiqatga oʻchligini, ijodkor sifatida ulkan odamligini yuksak baholaydi. Shu bois ham: “Ammo yolgʻonga engashgisi kelmagan bu qaddi tik odam yozuvchining, adabiyotning qadr-qiyamatini munosib tarzda yuksak tutgan, baribir haqiqat uning tarafida ekanini teran tushungan. Bu teranlikning tortish kuchi tufayli adabiyotimizda paydo boʻlayotgan sogʻlom kuchlar Abdulla Qahhorga talpingan. Bozori chaqqon asarlar yozishdan oʻzlarini tiyganlar” (3.298). Usmon Azim Abdulla Qahhor haqida “Bearmon umr” asarida ham yozuvchining hayot, va ijod yoʻlini yoritadi. Yana shunday Usmon Azim ijodi va uning estetik tamoyillarining shakllanishida oʻz



hissasini qo‘shishda Asqad Muxtor hayoti va ijodining ham alohida o‘rni bor. “Asqad Muxtor — adabiyotimizda alohida ajralib turadigan orolga o‘xshaydi. U tegrasidagi maddohlar, iste’dodsizlar va hatto yozishda oddiygina mantiqni udda qilolmaydiganlar qurshovidan chetda — yolg‘izgina ajralib turadi” [3.258]. Usmon Azim Asqad Muxtorni adabiyotning jonkuyar, halol, mehnatkash vakili ekanligini ta’kidlab, Asqad Muxtorning beminnat sa’y-harakatlari orqali adabiyotga ko‘pdan-ko‘p yosh ijodkorlar kirib kelganligini faxr bilan tilga oladi. Usmon Azimning ilk she’riy to‘plami va dostoniga Asqad Muxtor bosh muharrir bo‘lgani, Rauf Parfining she’rlarini ham ilk bor Asqad Muxtor chop etganini qayd etadi. Shu bilan birga yozuvchining samimiy fe’l-atvori, kamtarinligini-da e’tirof etadi. Asqad Muxtor kasalxonada yotganda Usmon Azim yozuvchi qoshiga borganda yozuvchi Usmon Azim va uning tengdoshlariga adabiyotni omonat qilib tashlab ketayotgani haqida eslaydi shoir. Usmon Azim Asqad Muxtor tomonidan berilgan maqto’vni hali hamon eng yaxshi maqto’vlar sifatida qabul qilishini ta’kidlaydiz zero zabardast yozuvchidan olingan maqto’v ham qimmatlidir. Qolaversa, shoirning adabiy-estetik qarashlarining takomillashuvida, shu bilan birga, ijodkor sifatida paydo bo‘lishida ham yozuvchi Shukur Xolmirzayevning o‘rni beqiyos. Shoirning shoir bo‘lishida kimningdir turtkisi muhim. Kingadir havas natijasida ijodini boshlagan shoir kun kelib katta shoir, katta yozuvchiga aylanishi mumkin. Usmon Azimning shoir bo‘lib yetishishiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan ijodkor Shukur Xolmirzayev hisoblanadi. Usmon Azim “So‘ngso‘zlar” asarida Shukur Xolmirzayev akasi, tog‘alari bilan birga o‘qiganligi, ular yozuvchining she’rlari, keyinchalik hikoyalari gazetada bosilganligi eshitgan, demak yozsa bo‘lar ekan-da degan fikr shoir tafakkurida hosil bo‘lgani haqida eslaydi. Keyinchalik yozuvchi adabiyotda o‘z o‘rnini topib o‘zgacha uslub, o‘zgacha obrazlar vositasida turfa voqealarni, umuminsoniy g‘oyalarni qog‘ozga tushira olgan. Yozuvchi hikoyalari bilan tanishgan Usmon Azim esa ulardan ta’sirlangan, yozuvchi uslubidan hayratlangan. Xalq og‘zaki ijodi bilan savodi chiqqan shoirning endilikda ijodkor sifatida ilk tasavvurlari shakllanishiga Shukur Xolmirzayevning hikoyalari asos bo‘lgan. Yozuvchi va shoir o‘rtasida kechgan suhbatlar Usmon Azimga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shukur Xolmirzayev o‘zidan yosh yosh shoir ukasiga ijodiy tavsiyalar berar, xususan, mumtoz adiblarning asarlarini o‘qib turish kerakligini, agar o‘qimasa ba’zi so‘zlar ko‘p takrorlanishini, javohir so‘zlarni terib yozish haqida uqtirgan. Shukur Xolmirzayev havaskorlarni tan olmas, yozuvchilik tinimsiz ravishda o‘rganiladigan kasb ekanligini ta’kidlab butun umr o‘zi ham ana shu qoidaga asoslanib mehnat qilgan, jahon adabiyotining eng yuksak asarlari bilan bo‘ylasha oladigan asarlar yaratdi. Uning “So‘ngso‘zlar” asarida Shukur Xolmirzayevning yozuvchi



sifatida, qolaversa insoniy xislat va fazilatlari izchil va keng yoritgan shoirning ijodiy shakllanishi va adabiy-estetik qarashlari takomilida yozuvchining ulkan ta'sir borligiga amin bo'lamiz. Usmon Azim suhbat va xotiralarida bot-bot Shukur Xolmirzayevning ulkan iste'dodi, fe'l-atvori, adabiy didini ham yuqori baholaydi. “Uning har bir so'zi men uchun muhim. Yetmoqligimni hali tasavvur ham etolmaganim adabiyot olamidani kelgan har qanday sharpa ko'nglimdagi bepoyon e'tiqodni larzaga keltiradi. Shunda umrni baxsh etmoqqa faqat bir narsa arzishini aniq sezaman - ADABIYOT. Mashhur adib men bilan yuragini ochib, adabiyot haqida suhbatlashgayotganidan behad quvonaman. “Shukur aka jahon nasri tajribalarini o'zbek adabiyotiga bimalol olib kirgan, uni o'zimiznikiga aylantirgan, nasrimiz ufqini kengaytirgan, uni jaydarilik va qishloqilikdan saqlab qolgan yakto adiblarimizdan. Adibning adabiyotimiz oldidagi xizmati ibratli va benazirdir. Shukur Xolmirzayev ijodi – realistik yo'nalishdagi o'zbek nasrining cho'qqilaridan. Ehtimol, eng yuksak cho'qqisidir” [3.376]. U to'xtovsiz o'n besh kunlab, bir oylab yozuv mashinkasini chiqillatib o'tirishi mumkin edi. Yozganda ham har kun besh-o'n betlab yozardi. Yozgan sahifalari nihoyatda ozoda bo'lishi lozim edi. Xato o'tkazsa o'sha sahifani qayta qayta mashinkalab chiqardi. Sigaret hidi anqigan betartib ijodxonasida faqat yangi yozilayotgan asari qo'lyozmasi alohida e'tibor bilan stolning bir chetiga taxlab qo'yilardi. Ayniqsa, yozuvchining adabiyot matonatli mehnat ekanligini anglagan, bu mehnatidan hech qachon nolimaydigan, mehnatdan qochmagan, bu zahmatidan faxr tuygan, turli suhbatlardan qochib o'z ish stoliga shoshgan, kasallikka bo'y bermay mehnat qilgan ijodkor sifatida e'tirof etadi. Usmon Azim Shukur Xolmirzayevdan eng qimmatli saboqlarni olgani, kuchli odam bo'lish kerak degan sabog'ini unutmagan va ayni shu saboqlarni yozuvchining o'zining hayotida, xatti-harakatlarida ko'rganini ta'kidlaydi. Shukur Xolmirzayev havaskorlikni tan olmaydigan, yozuvchilik bu to'xtovsiz o'rganiladigan kasb deya baholaydi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining yuksak darg'asi hisoblangan Abdulla Oripovning ham shoir ijodiga ta'riri mavjud. Abdulla Oripov esa Usmon Azimning adabiy-estetik qarashlarining takomillashuvida ham, poetik tafakkurining shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Usmon Azim Abdulla Oripovning endigina chop etilgan kitobini sotib olib mutolaa qilganligi, Abdulla Oripov she'riyatga kirib kelgach adabiyotning sokin xalqoblari to'lg'oqli dengizga aylanganini, shoirning ishlatilmaydigan va qachonlardir ishlatilib eskirib ketgan so'zlarni zamonaviy she'riyatga olib kirganligini ta'kidlaydi. O'zining doimiy suhbatdoshi va adabiy maslakdoshi sifatida doim Shukur Xolmirzayev va Abdulla Oripovni tanigan: “Ular bilan pastga tushib gaplashmaysan, hafsalang pir bo'lmaydi, suhbatdoshing teranligidan quvongancha, yurakdosh topganingdan tobora zavqlanib

fikrlaysan. Fikrlar qaynaydi. Adabiyot sir-asrorlarining allaqanday bir inja joylariga borib qaytasan. Ong ortining olis, tumanli burjlari ham yuz ochib ko‘ringanday bo‘ladi. Ular donishmand va nihoyatda uchqur fahmli odamlar”[3.230]. Adabiyotda tub burilish yasay olgan Abdulla Oripov va yuksak yozuvchi Shukur Xolmirzayev bilan o‘tgan suhbatlar, shoirni so‘ngsiz o‘ylarga chorlagani, ilhombxsh onlarni tuhfa qilganligi, adabiyot, san‘at, ijtimoiy hayot haqidagi qizg‘in mulohazalar Usmon Azim adabiy-estetik qarashlarining shakllanishiga omil bo‘la olgan.

“Odamlar ajib bir intiqlikda nimanidir kutayotgan paytda Abdulla Oripov kirib keldi. “Kirib keldi” jumlasida Abdulla Oripovdek ulkan ulkan shoirning adabiyotda paydo bo‘lishidek katta voqelik qamrovini berolmaydi. “Adabiyot osmonida quyoshday porladi” degan bir qarashda yarashiqsiz jumlaning shu o‘rinda bemalol ishlatsa bo‘ladi”[3.232]. Darhaqiqat, ijodkorning yaxshi ijodkor bo‘lib shakllanishida adabiy muhitning ham katta hissi mavjud. Usmon Azim ana shunday jonli adabiy muhitning jonkuyar vakili, otashin shoiri - Shavkat Rahmon haqida ham ko‘p bora to‘xtaladi. Xususan, suhbatlarning birida Usmon Azim Shavkat Rahmonga “O‘zingni ayama beshafqat bo‘lgin” she‘rini o‘qib bergandan so‘ng Shavkat Rahmon she‘rdan qattiq ta’sirlanganini, so‘ng o‘zi ham “O‘ldir, ichingdagi xoinni o‘ldir” deya she‘r bitgani bundan ta’sirlanib Mirzo Kenjabek ham she‘r bitgani shuni ko‘rsatadiki, adabiy ta’sir yaxshi asarlarning yaralishiga turtki beradi. Usmon Azim Shavkat Rahmonning ijodi, shaxsiyati, baland she‘riyatini yuksak e‘tirof etadi. Bu e‘tirof zaminida, o‘z tengdoshi bilan adabiy davralarda birgalik aynan shoirning adabiy-estetik qarashlari rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgani tabiiy. Usmon Azim Shavkat Rahmonning izlanish uslubini barcha shoirlarga tavsiya qiladi. Usmon Azimning qayd etishicha, Shavkat Rahmonning she‘riyati izlanish, mehnat, sabr-toqatning mevasi ekanligini, izlangani sari shoir she‘riyatining barq urib borishini, ijodiy imkoniyatlarini tobora o‘stirib borganini e‘tirof etadi. Xuddi shuningdek taniqli o‘zbek nosiri Erkin A‘zam bilan bolalikdan shakllangan do‘stlik ham har ikki ijodkor uchun adabiy davra vazifasini bajargan. Adabiy davra, adabiy do‘st hamisha ijodkorning ko‘nglini, fikrini o‘stirish uchun muhim. Bu haqida Usmon Azim Erkin A‘zam bilan tanishgan kundan boshlab hamfikir tengdosh, yurakdosh do‘st, shuningdek, tuppa-tuzuk adabiy davra topganligini ular bir-birlari uchun adabiy davra vazifasini o‘taganliklarini ta’kidlaydi. Usmon Azim Erkin A‘zam bilan tanishuvi va ijodiy hamkorligi haqida xotirlaydi, to‘qqizinchi sinf chog‘ida tanishgani, adabiyotga shu qadar qiziqadigan insonni uchratgani, bir umrlik adabiy do‘st topganini e‘tirof etadi. Albatta, tengdosh, zamondosh shoirning-da shoirga ta’siri katta. Buni Usmon Azim ijodida, suhbatlarida, “So‘ngso‘zlar” asarida ko‘p kuzatamiz. Usmon Azim ham xuddi boshqa zabardast adiblar singari faqat



mumtoz, folklor va zamonaviy o'zbek adabiyoti bilan cheklanmay, jahon adabiyotining nodir iste'dod egalari hisoblangan shoirlarning-da ijodi bilan tanishgan, ularning tajribalarini, mahoratlarini kuzatgan, bu kuzatuvlar esa shoirning keng adabiy-estetik konsepsiyasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Usmon Azim iste'dodli shoir, nosir, dramaturg, publitsist bo'lish bilan bir qatorda mohir tarjimon hamdir. Usmon Azim tarjimalari orqali o'zbek adabiyotiga jahonning mashhur shoirlarining eng yaxshi ijod namunalari kirib keldi. Usmon Azim Pol Elyuar, V. Vatsiyetis, H.Dog'larja, A. Voznesenskiy kabi ijodkorlarning she'rlarini tarjima qilgan. Usmon Azim A. Voznesenskiyning besh-olti ko'ngliga yoqadigan she'rlarini tarjima qilganini bayon etar ekan, uning eng zabardast shoir ekanligiga urg'u beradi. Shoirning vafot etgani haqida televizordan xabar topgan Usmon Azim bir telekanal efirida aynan o'zi tarjima qilgan, o'zi sevgan she'ring ikki misrasini ko'rib hayratga tushadi shoir. “Ollohning bir mo'jizasi – ulug' iste'dodning dunyodan ketishi meni bir larzaga solgan bo'lsa, uning umriga xotima bo'lib yangrayotgan bu ikki satrga mening ham aloqam borligidan battar hayajonlandim”.[3.132]. Usmon Azim poetik dunyosini o'rgangan tadqiqotchilar Usmon Azim ijodida Mayakovskiyona uslub yetakchilik qilishini ta'kidlashadi. Usmon Azim ijodining ilk pallaridan ayni Mayakovskiyga xos uslubda qalam tebratgani ham ijodida namoyon bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'zbek va jahon adib-u shoirlarining ulkan ta'siri Usmon Azim ijodida, adabiy-estetik qarashlari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy ta'sirlanish, adabiy muhit, adabiy aloqalar ijodkor shakllanishi va poetik tafakkurida muhim sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Azimov U. Saylanma. –T.: Sharq, 1995.
2. Azimov U. Fonus . – T.: Sharq, 2010.
3. Azimov U. So'ngso'zlar. – T.: Ilm-zakovat, 2020.
4. Adabiyot – shaxsiyat va san'at ko'zgusi. Yoshlik, 2019. 3-son. 6-b.